

**BIZNES IMKONIYATLARINI TAKOMILASHTIRISH ORQALI
KORXONALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO'LLARI**

Usmonov Sunnatillo Berdiqu'l o'g'li
IK K 122 guruh

**EFFECTIVE WAYS TO IMPROVE BUSINESS OPPORTUNITIES
OF THE ENTERPRISE**

Abstract: In article justified the necessity and proposed ways of forming effective strategies for the development enterprises on the basis of their business capabilities in the modernization of the national economy

Keywords: opportunities, modern enterprise, development strategy, traditional enterprise, strategic management, marketing approach, business

**ЭФФЕКТИВНЫЕ ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ БИЗНЕС-ВОЗМОЖНОСТЕЙ
ПРЕДПРИЯТИЯ**

Аннотация: в статье обоснована необходимость и предложены пути формирования эффективных стратегий развития предприятий на основе оценки их бизнес-возможностей в условиях модернизации национальной экономики.

Ключевые слова: бизнес-возможности, традиционное предприятие, современное предприятие, стратегия развития, стратегическое управление, маркетинговый подход,

Mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ulkan yutuqlarga erishildi..

Bugungi kunda mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimizni yanada rivojlantirishning 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqegini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, o'z o'rnida ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va

globallashuvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ma'lum ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutning, ekologik tahdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining keskin farqlanishi kabi holatlar jahon xo'jaligining yahlit tizim sifatida barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarining yana bir xususiyatli jihati – jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hisoblanadi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, hozirgi jahon mamlakatlari iqtisodiy tizimida raqobat kurashi keskinlashib borayotgan davrda, milliy iqtisodiyotimizni modernizatsiyalashda korxonalarining biznes imkoniyatlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bizga ma'lumki, biznes imkoniyat – bu mulk shaklidan qat'iy nazar, har qanday faoliyat(biznes) yuritish uchun yaratilgan zaruriy shart-sharoitlar, tashkiliy-huquqiy asoslar, mavjud resurslar va ulardan foydalanish darajasi, iqtisodiy-siyosiy barqarorlikning mavjudligi va shu kabi boshqa biznes yuritish uchun zarur bo'lgan hatti-harakatlar, chora va tadbirlar majmuidir. Bundan tashqari har qanday korxonaning boshqaruv tizimi bosh maqsad yo'lida oqilona harakatlana olsa, biznes imkoniyatlari darajasi yuqori bo'ladi (

Ya'ni, zamonaviy korxonalariga kuchli ta'sir etuvchi va ularning faoliyatini shakllantiruvchi omillar – bu bozor munosabatlaridagi jarayonlar, ayniqsa kon'yunkturaviy o'zgarishlar, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, o'sib borayotgan raqobat, doimiy va tez o'zgarishlar, o'ta murakkab xo'jalik muhiti, zamonaviy ishlab chiqarish xususiyatlaridir.

O'ziga ravshan maqsadlar tanlash, hamda muhitga moslashish zamonaviy korxonaga xos asosiy xususiyatlardan biridir.

Xorijiy va mahalliy korxonalar faoliyatida 3 asosiy iqtisodiy va boshqarish uchun muhim o'zgarishlarni kuzatish mumkin:

- 1) «ishchi – ishchi o'rni» munosabatlari;
- 2) «korxonalar- ishchi-xodimlar» munosabatlari;
- 3) «korxonalar-korxonalar» munosabatlari.

Zamonaviy korxonani ajratib turgan yana bir narsa – bu zamonaviy korxonalar boshqaruvi tubdan o'zgarishi. So'nggi 10-15 yil ichida korxonalar boshqaruv tizimining deyarli barcha taraflari keskin o'zgarishlarga duch kelgan, ushbu o'zgarishlar deyarli barcha jahon mamlakatlari korxonalarini faoliyatida kuzatilmoqda.

Oldin foydalanilgan boshqaruv texnologiyalarini samaradorligi bozor munosabatlariga o'tish, islohotlarni boshlanish davrida pasaygan. Bugun tashqaridan emas, balki tashqi va ichki omillar ta'sirida o'z faoliyatiga o'zgarishlar kirita oladigan

va atrof-muhitning dinamik o'zgarishlariga moslashgan zamonaviy boshqaruv texnologiyasi yaratilishi kerak. O'zbekiston korxonolari ushbu sharoitlarda samarali, yuqori natija erishishga mo'ljallangan boshqaruv tizimini mustaqil shakllantirib borishlari zarur. Faqat zamonaviy talablarga javob beradigan raqobatbardosh boshqaruv korxonalarining bozorda o'z o'rnini topishi, uzoq muddatli faoliyat va rivojlantirishi garovi bo'lishi mumkin.

Xo'jalik muhitidagi o'zgarishlar zamonaviy korxonada boshqaruvida oldingi boshqaruvga mos bo'lmagan bir qator yangi vazifalarni qo'yadi. Bular:

- faoliyatni bozor ehtiyojlari tomoniga qaratish (marketing);
- korxonani kelajagini o'ylab rivojlanishini ta'minlash (strategik boshqaruv);
- korxonada raqobatbardoshlik talablariga javob beradigan mahsulot yaratish (sifatni boshqarish);
- korxonada qiymatini oshirib borish (xodimlar bilan ishlash – inson resurslarini boshqarish);
- korxonada ishlab chiqarishni va mahsulotni takomillashtirib borish va iste'molchining yangidan-yangi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yangiliklar yaratish (innovatsion menejment).

Fikrimizcha, ko'rsatilgan vazifalarni bajarish korxonalarining ko'pchiligi u yoki bu holda duch kelayotgan quyidagi asosiy muammolarni hal etishini taqozo etadi. Ya'ni, zamonaviy korxonaning eng asosiy muammosi – bu boshqaruv muammosidir. Bozor iqtisodiyotiga mos boshqaruv usullari va dastaklarini to'la o'zlashtirish zamonaviy boshqaruv ilmining rivojlanishiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, qaysi muammolar eng muhim deb topish, ularni tez va to'g'ri hal etish, o'z ijobiy va sezilarli ta'sirini o'tkazadi deb tanlashga bog'liq.

Korxonalar mustaqilligi oshib borar ekan, korxonada kelajagini ta'minlash uchun, o'z faoliyatini rejalashtirishi, atrof-muhit o'zgarishiga moslashib borishi, strategik boshqaruvni joriy etishi, korxonada o'z tarkibini va o'z xusu-siyatlarini zamon talablariga qarab o'zgartirishi kerak. Bu korxonada boshqaruvida egiluvchanlik va moslashuvchanlikni talab etadi. Bunda xodimlarini korxonaning asosiy boyligi ekanligini anglash, inson resurslarini boshqarish korxonada rahbariyatining e'tibori markazida bo'lishi zarur.

Yuqoridagi fikr va mulohazalar asosida bugungi kunda korxonalar biznes imkoniyatlarini oshirishning quyidagi yo'llarini taklif etish mumkin:

- korxonada rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish;
- korxonada tasarrufidagi mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanishga muntazam erishish, xamda ularni zamon va bozor talablari darajasida yangilanib borishini ta'minlash;
- mehnat resurslaridan, ya'ni ishchi-xodim, mutaxassis, rahbarlar malakasini oshirib borish, mehnat sharoitlarini yuksaltirib borish;

- innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, yakuniy natijalariga qarab oqilona va odilona rag'batlantirish tizimini joriy etish;
- boshqaruv tizimini muntazam takomillashtirib borish, vakolatlar taqsimoti va rag'batlantirish tizimida adolatlilik printsipiga qat'iy rioya qilishga erishish;
- zamonaviy kommunikatsiya tizimini shakllantirish;
- «tijorat siri» toifasidagi ma'lumotlarni tashqariga chiqib ketmaslik mexanizmini yaratish va unga amal qilinishiga erishish;
- muntazam ravishda xaridor(mijoz)lar talab va ehtiyojlarini o'rganish, uning natijalariga mahsulot ishlab chiqarishni moslashtirish;
- mehnat jamoasidagi sog'lom ijtimoiy-ruhiy iqlimni shakllantirish va uni doimiyligini ta'minlash;
- oqilona xo'jalik aloqalari tizimini yaratish va uni muntazam mustahkamlanib borishini ta'minlash.

Bu vazifalarni ham strategik, ham joriy darajalarda hal etish mexanizmini shakllantirish – korxonalar barqaror faoliyat yuritishlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 25.12.2017 й www.turkiston.uz
2. <http://www.aup.ru>-Административно-управленческий портал., Бизнес-портал AUP.Ru, Менеджмент и маркетинг в бизнесе.
3. Mardiyevna, S. G., & Farxodovna, M. R. (2023). Small Service Business Trends. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 2(5), 123-130.
4. Mardiyevna, S. G., & Ugli, Y. S. N. (2023). Development of Entrepreneurship Organizing Enterprise Activity Through. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 564-571.
5. Mardiyevna, S. G., & Panjiyevich, K. S. (2023). Economic Fundamentals of the Development of Services. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 600-607.
6. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 169-179.
7. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
8. Shadiyeva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.

9. Shadieva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
10. Shadieva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
11. Shadieva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.
12. Shadieva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).
13. Nodirovna, M. S. (2023). Developing Rural Services and Increasing the Living Standards of the Population in the Republic of Uzbekistan. *Gospodarka i Innowacje*, 35, 653-661.
14. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
15. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
16. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
17. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
18. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
19. Mardievna, S. G., & Shukhatovna, M. S. (2021). Ways to increase investment potential in samarkand region. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(11), 44-50.
20. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
21. Мамаюнус, П., & Мардиевна, Қ. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида қўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. *Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector*, 278.

22. Shadieva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
23. Shadiyeva, G., & Kholmiraeva, G. (2022). FAMILY BUSINESS AND ITS DEVELOPMENT. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 148-151.
24. Shadieva, G., & Saidmurodov, F. (2022). DEVELOPMENT OF NATIONAL TOURISM AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF ITS COMPETITIVENESS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 115-124.
25. Шадиева, Г. М., & Кувандиков, Ш. О. (2022). РОЛЬ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 59-63.
26. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 712-721.
27. Пардаев, М. Қ., & Шодиева, Г. М. (2001). Оила хўжалиги иқтисодиёти ва тадбиркорлиги. Самарқанд, СамКИ, 151.
28. Shadieva, G. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC CONCEPT OF " FAMILY ECONOMY". *Confrencea*, 1(1), 239-243.
29. Шадиева, Г. М., & Садинова, Б. Б. (2022). Мамлакатимизда тадбиркорликни ривожлантириш йўллари.
30. Mardiyevna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). SYNERGETICS AND ITS ROLE IN SOLVING PROBLEMS OF FAMILY BUSINESS. *British View*, 8(1).
31. Mardiyevna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
32. Шадиева, Г., & Шакирова, Ф. (2021). ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШГА ТРАНСФОРМАЦИЈАШУВИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛКНИ РАСМИЙЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. *Экономика и образование*, (5), 381-384.
33. Mardiyevna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
34. Шадиева, Г. М. (2022). ОИЛА ХЎЖАЛИГИ ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШДА ОИЛАВИЙ БИЗНЕСНИНГ РОЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1).

35. Shadieva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).

36. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.

37. Shadieva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.

38. Mardiyevna, S. G., & Ugli, A. U. A. (2023). PROVIDING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN RURAL AREAS IN THE DIGITAL ECONOMY. *Research Focus*, 2(1), 7-10.

39. Paradaeva, O. M., & Shodieva, G. M. (2020). The role of family entrepreneurs in society

40. development. *American Journal of Economics and Business Management*, 3(5), 194-200.

41. Шадиева, Г. (2021). ОИЛА ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Экономика и образование*, (1), 121-126.

42. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 169-179.

43. Мамаюнус, П., & Мардиевна, Қ. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида қўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. *Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector*, 278.